



## **BOLALAR SEREBRAL FALAJI BO'LGAN BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH**

**Sultonov Ravshan Komiljonovich,  
Kurbanova Bagul Shuxrat qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiy  
fundamental fanlar kafedrası dotsenti, PhD  
Tibbiyot fakulteti Davolash ishi 2 kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar serebral falajligi bilan kasallangan bemor bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganib, baholashdan iborat. Bunda biz Surhondaryo viloyat ruhiy-asab kasalliklari shifoxonasida davolanayotgan BSF bilan og'rigan 115 nafar bolalar va Termiz shahridagi bolalar bog'chalari va maktablarning amalda sog'lom 120 nafar tarbiyalanuvchilari va o'quvchilarini oldik.

Bolalar serebral falajida qo'l-oyoqlar va ayniqsa ularning distal qismlari parametrlari ko'proq o'zgaradi. Kasallik vaqt oshishi bilan nafaqat bolaning vazni, balki bo'y ko'rsatkichlari ham pasayadi.

**Kalit so'zlar:** Bolalar serebral falajlik, Surhondaryo viloyat, antropometrik ko'rsatkichlar, raqamli rentgenografiya, epilepsiya.

### **ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ С ДЕТСКИМ ЦЕРЕБРАЛЬНЫМ ПАРАЛИЧОМ**

**Султонова Равшана Комилжоновича, Курбанову Багул Шухрат кизи**

**Термезский университет экономики и сервиса**

**Фундаментальные медицинские науки**

**доцент кафедры, PhD**

**Медицинский факультет Лечебное дело**

**Студент 2 курса**

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению и оценке показателей физического развития детей с детским церебральным параличом. При этом мы взяли 115 детей с ДЦП, находящихся на лечении в Сурхандарьинской областной психиатрической больнице, и 120 практически здоровых воспитанников и учащихся детских садов и школ города Термеза.

При детском церебральном параличе больше всего изменяются параметры конечностей и особенно их дистальных отделов. Со временем заболевания снижается не только вес ребенка, но и показатели роста.





**Ключевые слова:** Детский церебральный паралич, Сурхандарьинская область, антропометрические показатели, цифровая рентгенография, эпилепсия.

**Muammoning dolzarbligi:** Bolalar serebral falaji (BSF) ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sog'liqni saqlash oldida turgan global muammolardan biridir. Butun dunyoda ushbu kasallik bilan og'rigan bemorlar soni taxminan 17 millionga yetadi.

BSF doimo bolalar nogironligining asosiy sabablari orasida yetakchi o'rinni egallaydi, faqat ruhiy kasalliklardan keying o'rinda turadi [1].

Jahon amaliyotida BSF uchrash chastotasi bir yoshgacha bo'lgan 1000 ta bolaga 1,7 dan 7 tagacha holatni tashkil qiladi [2-3].

Rossiyada bu ko'rsatkich har 1000 bolaga 2,5 dan 6 holatgacha o'zgarib turadi. BSF bilan kasallangan bolalarning taxminan 50% muddatidan oldin tug'ilgan [4-5].

BSF (Bolalar serebral falaji) - bu markaziy asab tizimining (MAT) progressiv bo'lmagan shikastlanishi bo'lib, harakat funksiyalari buzilishi, aqliy buzilishlar, epilepsiya va muvozanat muammolari bilan tavsiflanadi.

Bolalar serebral falaji (BSF) bilan og'rigan bolalar nutritiv buzilishlar rivojlanish xavfi yuqori bo'lib, ularning rivojlanish ko'rsatkichlari adabiyotlar tahliliga ko'ra 80% ga yetadi [6].

Bolalar serebral falajlikda kasallangan bemor bolalalar va ularning oila a'zolari jismoniy azob-uqubatlarni boshdan kechiradilar. Bu esa o'z navbatida oila a'zolarining ijtimoiy-psixologik va moslashish holatini yomonlashtiradi [2-3-4-5]

**Tadqiqot maqsadi:** Bolalar serebral falajligi bilan kasallangan bemor bolalalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini baholashdan iborat.

**Tekshirish usullari va materiallari:** Tadqiqot materiali sifatida Surhondaryo viloyat ruhiy-asab kasalliklari shifoxonasida davolanayotgan BSF bilan og'rigan bolalar xizmat qildi. (115 ta bola, shundan 60 tasi o'g'il bolalar va 55 tasi qizlar). Nazorat guruhi sifatida Termiz shahridagi bolalar bog'chalari va maktablarning amalda sog'lom tarbiyalanuvchilari va o'quvchilari (120 nafar bola, shundan 60 nafari o'g'il bolalar va 60 nafari qizlar) xizmat qildi. Jami 3 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan 235nafar bolalar tekshiruvdan o'tkazildi.

BSF bilan og'rigan bolalarni tekshirish shifoxonalarning qabul bo'limida o'tkazildi. Bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilari va maktab o'quvchilarini o'rganish ushbu muassasalarning tibbiyot punktlarida amalga oshirildi.

Tadqiqotimizdagi asosiy guruh bemorlarni jins bo'yicha o'rganilganda o'g'il bolalar 60 nafar (52%), qiz bolalar esa 55 nafar (48%) ga nisbati 1,1:1 teng keldi. Kasallanishda jins bo'yicha aytarli farq ko'zatilmadi.





Tekshirilgan bolalarning yosh davrlari yillar bo'yicha taqsimlandi. Bolalarning antropometrik tadqiqotlari N.X. Shamirzaev, S.A. Ten va Sh.I. To'xtanazarovning (1998) uslubiy tavsiyalariga ko'ra o'tkazildi.

1-jadval

**Tadqiqotga olingan bolalarni yoshi va jinsi bo'yicha materiallarning taqsimlanishi abs, %.**

Yosh guruhlar	Umumiy bemorlar	Jins bo'yicha	
		Erkak	Ayol
Asosiy guruh BSF bolalar	115	60 nafar (52%)	55 nafar (48%)
Nazorat guruh sog'lom bolalar	120	60 nafar (50%)	60 nafar (50%)
Jami	235	120 nafar (51%)	115 nafar (49%)

Tashxisni tasdiqlash uchun bemorlarda standart asosida raqamli rentgenografiya, KT, MRT, MSKT bilan bog'liq tahlililar yordamida tekshirildi. Bundan tashqari nazoratdagi bemorlarda umumlinik va bioximik taxlillar: qon, siydik, najas tahlili va instrumental tekshiruvlardan ultratovush tekshiruvi (UTT), ko'rsatma asosida ko'krak qafasi rentgenografiyasi o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalari:** Surhondaryo viloyat ruhiy-asab kasalliklari shifoxonasida davolanayotgan BSF bilan og'rigan bemor bolalarning kasallikning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish natijasida surovnomma utkazilganida.

Bolada BSF rivojlanish xavfi quyidagi holatlarda ortadi:

Tug'ruq paytida:

- Shiddatli tug'ishlar.
- Homilaning chanoq oldi holati.
- Onasining chanog'i tor.
- Yirik meva.
- Cho'zilib ketuvchi tug'ruqlar.
- Intensiv tug'ruq faoliyati.
- Tug'ruqqacha davom etadigan suvsizlik davri.
- Diskoordinatsiyalangan tug'ruq faoliyati.

Tug'ruqdan keyingi davrda:

- Chaqaloqning gemolitik kasalligi (ona va homila o'rtasidagi immunologik ziddiyat tufayli miyaning toksik shikastlanishi).





- Asfiksiya (homiladorlik patologiyalari, o'pkaning rivojlanish nuqsonlari, qog'onoq suvlarining aspiratsiyasi tufayli kislorod yetishmovchiligi).

**Xulosa:** Bolalar serebral falajida qo'l-oyoqlar va ayniqsa ularning distal qismlari parametrlari ko'proq o'zgaradi. Yuqori qo'l-da kaft uzunligi, keyin bilak, so'ngra yelka uzunligining kamayishi kuzatiladi. Oyoq uzunlik ko'rsatkichlarining orqada qolishi asosan boldir uzunligining qisqarishi hisobiga yuzaga keladi. Sog'lom bolalar va serebral falajli bolalarda qo'l va oyoqlarning aylana parametrlari har doim chap tomondan kichikroq bo'ladi. Kasallik vaqt oshishi bilan nafaqat bolaning vazni, balki bo'y ko'rsatkichlari ham pasayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Суринов А.Е., Баранов Э.Ф., Бугакова Н.С., Гелвановский М.И., Гохберг Л.М., Егоренко С.Н. Россиуа в цифрах. Росстат. М., 2017; 511.
2. Гаффоров С.А., Хамроев Ф.Ш., Кулдашева В.Б. Стоматологические и неврологические патологии у детей: этиопатогенетические аспекты их взаимосвязи и диагностика. Stomatologiya 2020;4(81):55-59.
3. Гаффоров С.А. Стоматология Руковод. для стоматолога педогогов, медиков, магистров, клин-ордин-ов, курсантов для повышения и квалификатсии специалистов. ИУВ. Реком-но по протоколу №8. 04.10.18 г. и 28.09.18 годов МзРУз, Ташкент-2018. 875 с.
4. Гаффоров С.А., Яриева О.О., Хайдарова Ф.А. Общие результаты анкетирования родителей детей по вопросам профилактики и лечения кариеса зубов в городе Бухаре. «Проблемы биологии и медицине». Меж.науч.журн. №4.1, с.32 Самарканд 2017 1 стр
5. Rempel G. The Importance of Good Nutrition in Children with Cerebral Palsy. Phys Med Rehabil Clin N Am 2015; 26: 39–56. DOI: 10.1016/j.pmr.2014.009.01
6. Р.Ф. Рахмаева, А.А. Камалова, В.А. Аюпова. Оценка антропометрических показателей и компонентного состава тела у детей с детским церебральным параличом.// российский вестник перинатологии и педиатрии, 2019; 64:(5)

